



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. УМУМИЙ ЎРТА ВА ЎРТА МАХСУС, КАСБ-ҲУНАР ТАЪЛИМИНИНГ ДАВЛАТ ТАЪЛИМ СТАНДАРТЛАРИНИ ТАСДИҚЛАШ ТЎҒРИСИДА (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 14-сон, 230-модда) 92 бет.
2. Safarova.R. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar. Toshkent. 2023-yil.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati 6 tomlik. 4-6 tomlar . Toshkent:. G'afur G'ulom nashriyoti 2022-yil.
4. Mavlonova. K., Qo'ldosheva S., Hakimova N.,Siddiqov M. Ona tili 5-sinf uchun darslik. II qism. Toshkent:. Novda. 2024-yil 160-bet.

References:

1. УМУМИЙ ЎРТА ВА ЎРТА МАХСУС, КАСБ-ҲУНАР ТАЪЛИМИНИНГ ДАВЛАТ ТАЪЛИМ СТАНДАРТЛАРИНИ ТАСДИҚЛАШ ТЎҒРИСИДА (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 14-сон, 230-модда) 92 бет.
2. Safarova.R. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar. Toshkent. 2023-yil.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati 6 tomlik. 4-6 tomlar . Toshkent:. G'afur G'ulom nashriyoti 2022-yil.
4. Mavlonova. K., Qo'ldosheva S., Hakimova N.,Siddiqov M. Ona tili 5-sinf uchun darslik. II qism. Toshkent:. Novda. 2024-yil 160-bet.

PUBLITSISTIK USLUBNI O'RGANISH ORQALI O'QUVCHILARNING TANQIDIY VA IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

Iskandarova Noila Muxtor qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU

O'zbek tili va adabiyoti ta'limi fakulteti magistranti

noila.skandarova@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada publitsistik uslubni o'rganish orqali o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati atroflicha yoritilgan. Unda ayniqsa, publitsistik matnlar vositasida o'quvchilarda ijtimoiy hodisalarga nisbatan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, dolzarb muammolarni tahlil qilish, ularni chuqur anglash, hayotiy voqealarga nisbatan mustaqil, asosli va lo'nda fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari keng yoritiladi. Maqolada o'quv jarayonida publitsistik uslubdan foydalanishning samarali metodlari, mavjud amaliy tajribalar, ilgari chop etilgan publitsistik maqolalarning mazmun-mohiyati, ularning didaktik va tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilinib, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarilgan. Shuningdek, bu uslub o'quvchilarda nafaqat tafakkurni, balki muloqot madaniyatini, so'z boyligini ham rivojlantirishda muhim vosita sifatida qaralgan. Shu orqali publitsistik uslub ta'limning zamonaviy talablariga javob beruvchi samarali vosita sifatida e'tirof etiladi.

Kalit so'zlar: publitsistik uslub, tanqidiy tafakkur, ijodiy tafakkur, media savodxonlik, matn tahlili, jurnalistik janrlar, ta'lim metodikasi.

Annotation

This article thoroughly explores the role and significance of the journalistic style in developing students' critical and creative thinking. In particular, it highlights how journalistic texts help students form an active civic position toward social phenomena, analyze pressing issues, understand them deeply, and develop the ability to think independently, reasonably,



and concisely about real-life events. The article discusses effective methods of using the journalistic style in the educational process, examines existing practical experiences, and analyzes previously published journalistic articles in terms of their content and educational potential, drawing scientifically grounded conclusions. Additionally, this style is considered a crucial tool not only for developing students' thinking skills but also for enhancing their communication culture and vocabulary. Through this, the journalistic style is recognized as an effective means that meets modern educational requirements.

Keywords: publicistic style, critical thinking, creative thinking, media literacy, text analysis, journalistic genres, teaching methodology.

Zamonaviy ta'lim jarayonida shaxsiy fikr yuritish, mustaqil qaror qabul qilish va ijtimoiy masalalarga ongli munosabat bildirishga qodir o'quvchi shaxsini shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Ushbu jarayonda publitsistik uslub muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Publitsistik uslubdagi matnlar orqali o'quvchilar nafaqat til boyligini oshiradi, balki hayotiy masalalarni tahlil qilish, ularni o'z nuqtai nazaridan baholashni o'rganadi. Publitsistik uslub nafaqat axborot berish, balki muayyan fikrni ommaga yetkazish, voqea-hodisalarga baho berish, fikr uyg'otish kabi vazifalarni bajaradi. O'quvchilar bu uslubni o'zlashtirish orqali tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirish, jamiyatdagi hodisalarga befarq bo'lmagan holda yondashishni o'rganadilar.

Publitsistik uslub ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotga oid dolzarb muammolarni yorituvchi uslubdir. Bu uslub asosan ommaviy axborot vositalarida qo'llaniladi va auditoriyaga bevosita ta'sir qilishga qaratilgan. Uning asosiy xususiyatlari – aniqlik, lo'ndalik, dalillarga tayanish, emotsional ta'sirchanlik va muallif pozitsiyasining ochiqligidir.¹³²

Tanqidiy tafakkur – bu mavjud ma'lumotlar asosida tahlil qilish, xulosa chiqarish, baholash va muqobil yechimlarni ilgari surish qobiliyatidir. Publitsistik matnlar, ayniqsa dolzarb mavzularga oid maqolalar, o'quvchilarda mavjud holatni chuqur tahlil qilishga undaydi. Z.Karimovning "Ma'rifat" gazetasida nashr qilingan "Танқидий тафаккур ва ахборот таҳлили" maqolasida ta'kidlanganidek, iqlim o'zgarishi, korrupsiya, yoshlar muammosi kabi mavzular o'quvchilarning dunyoqarashi va fikrlash :rasini kengaytiradi.¹³³

Ijodiy tafakkur insonning yangicha yondashuv, innovatsion fikr, erkin ifoda va o'zini ifodalashga bo'lgan ehtiyojini qamrab oladi. Publitsistik janrlarda yozish (maqola, ocherk, intervyu) o'quvchilarning ijodiy yondashuvini shakllantiradi. Bunday topshiriqlar orqali o'quvchi dolzarb muammolarni o'z nigohi orqali yoritadi, bu esa "ijodiy tafakkurini rivojlantiradi".¹³⁴

M.Zokirovaning "Pedagogika" jurnalida chop etilgan "Ўқувчиларда танқидий фикрлашни ривожлантириш усуллари" nomli maqolasida ta'lim

^{132.} Эргашев Б. Публицистика назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 22-б.

^{133.} Каримова З. "Танқидий тафаккур ва ахборот таҳлили". – Тошкент: Маърифат, 2018. – 67-б.

^{134.} Расулов А. "Ижодий ёзув машқлари асослари". – Самарқанд: Зиё, 2016. – 14-б.



jarayonida publitsistik uslubni samarali o'qitish uchun quyidagi metodlar tavsiya etiladi:

1. Matn tahlili – o'quvchilar bilan publitsistik matn ustida muallif pozitsiyasi, asosiy g'oya va dalillarning tahlilini o'tkazish.

2. Bahs va munozaralar - ijtimoiy mavzular yuzasidan ochiq munozaralar tashkil etish.

3. Ijodiy yozuv mashqlari – o'quvchilarga maqola, intervyu yoki ocherk yozish topshiriqlarini berish.

4. Rol o'yinlari – o'quvchilarni jurnalist, suhbatdosh, tahrirchi obrazlarida chiqish qilishga undash.

Bu metodlar orqali o'quvchilar faollashadi, fikr bildirish va asoslashga o'rganadilar.¹³⁵

Andijon viloyatidagi 25-maktabda olib borilgan eksperimental mashg'ulotlarda 9-sinf o'quvchilari bilan "Yoshlar va axborot xavfsizligi" mavzusida publitsistik maqolalar yozildi. O'quvchilar tomonidan tayyorlangan materiallar orasida dolzarb fikrlar, real misollar va shaxsiy munosabatlar aks etgan bo'lib, bu ularning ijodiy va tanqidiy tafakkuri yuksalayotganini ko'rsatdi.¹³⁶

Taniqli olim B.Blum tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan texnikaning muallifi bo'lib, uni aksariyat metodistlar "Blum moychechagi", ayrimlari "Blum kubi" deb ataydilar.¹³⁷ Mazkur texnika savolni to'g'ri qo'yishni o'rgatadi. Til ta'limida "Blum moychechagi" texnikasini qo'llash uchun o'quv materiallaridan matnlar, shuningdek, videomateriallar tanlanadi. O'quv materiallari bilan ishlashda savollarni qay tarzda tuzish muhim hisoblanadi. V.Snetkov: "Yaxshi savol – muqobil javoblarga yetarli darajada ko'p imkon qoldiradigan savol" deb ta'kidlagan va savollarning quyidagi vazifalarini belgilagan: yangi axborot olish; mavjud axborotni aniqlashtirish; suhbatni boshqa mavzuga o'tkazish; javobga yo'l ko'rsatish; o'z fikrini, bahosini, qarashini namoyish qilish; suhbatdoshining ongi va tuyg'ularini muayyan yo'nalishga qaratish.¹³⁸ To'g'ri tuzilgan savollar o'quvchida vaziyatni tahlil qilish va unga turli rakurslardan qarashga o'rgatadi.

Publitsistik uslubni ta'lim jarayonida o'rgatish orqali o'quvchilarning nafaqat til ko'nikmalari, balki ijtimoiy faolligi, tanqidiy va ijodiy tafakkuri ham rivojlanadi. Bu esa ularni axborot olamida mustaqil fikrlay oladigan, faol va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu uslub orqali o'quvchilar jamiyatdagi dolzarb masalalarni tahlil qilishni, baholashni, muammolarga o'z qarashini bildirishni o'rganadi. Bu esa ularning

¹³⁵ Зокирова М. "Ўқувчиларда танқидий фикрлашни ривожлантириш усуллари" // Педагогика журнали, 2021, №3. – 26-б.

¹³⁶ Собирова Г. "Медиа саводхонликни ўргатишда публицистик услуб" // ЎЗМУ Илмий ахбороти, 2020, №2.- 39-б.

¹³⁷ Загашев И. Умение задавать вопросы // Начальная школа, 2001 (4). – С. 13.

¹³⁸ Снетков В.М. Психология коммуникации в организациях (учебное пособие). – Санкт-Петербург: СПбГУ, 1999. – 116 с.



tanqidiy tafakkurini rivojlantiradi. Shu bilan birga, publitsistik matnlarni yaratish va tahlil qilish jarayoni o'quvchilarning ijodiy salohiyatini faollashtirib, ularda mustaqil fikrlash, obrazli ifoda, mantiqiy bayon qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. O'quvchilar publitsistik uslub vositasida o'z fikrini ommaga yetkazish, ijtimoiy muammolar yechimiga o'z hissasini qo'shishga intiladi. Shu bois, maktab ta'limida publitsistik uslubni tizimli o'rganish o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy faolligini oshirishda, ularni zamonaviy axborot oqimida to'g'ri yo'nalishda fikr yurita oladigan, faol va mas'uliyatli fuqarolar etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Эргашев Б. "Публицистика назарияси ва амалиёти". – Тошкент: Академнашр, 2012. – 22-б.
2. Каримова З. "Танқидий тафаккур ва ахборот таҳлили". – Тошкент: Маърифат, 2018. – 67-б.
3. Расулов А. "Ижодий ёзув машқлари асослари". – Самарқанд: Зиё, 2016. – 14-б.
4. Зокирова М. "Ўқувчиларда танқидий фикрлашни ривожлантириш усуллари" // Педагогика журнали, 2021, №3.
5. Собирова Г. "Медиа саводхонликни ўргатишда публицистик услуб" // ЎЗМУ Илмий ахбороти, 2020, №2.
6. Загашев И. Умение задавать вопросы // Начальная школа, 2001 (4). – С. 13.
7. Снетков В.М. Психология коммуникации в организациях (учебное пособие). – Санкт-Петербург: СПбГУ, 1999. – 116 с.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/KZSW9651

XORIJLIK TALABALARNING O'ZBEK TILIDA SO'Z O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI

Israilova Z.

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU doktoranti

Annotatsiya

Til o'rganish inson tafakkuri va madaniy aloqalarining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Har qanday chet tilini o'rganish davomida eng asosiy muammolardan biri so'z boyligini shakllantirish va uni amaliy qo'llay olishdir. Bu jarayonda leksik birliklarni o'zlashtirish muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda ham ayni shu jihatlarni e'tiborga olish lozim. Xorijlik talabalar uchun o'zbek tilida so'z boyligini shakllantirish nafaqat grammatik bilimlarni o'zlashtirishni, balki muloqotda so'zlarni to'g'ri tanlash va ishlatishni ham talab qiladi. Xususan, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan xorijlik talabalar uchun so'zlarni samarali o'zlashtirish jarayoni psixolingvistik, metodik va pedagogik yondashuvlarning integratsiyalashuvi asosda tashkil etiladi. Mazkur maqolada chet ellik talabalar tomonidan o'zbek tilida so'z o'zlashtirish jarayonining to'rt bosqichli modeli ilgari suriladi: tanishuv, tushunish, mustahkamlash va avtomatlashtirish. Har bir bosqichda turli lingvistik va psixolingvistik omillar inobatga olinishi maqsadga muvofiq.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, xorijlik talabalar, so'z o'zlashtirish, perseptiv, semantik, reproduktiv, funksional bosqich.



<i>MASALASI</i>	
<i>Abdiraimova Khusnobod Samat kizi. KOGNITIV VA METAKOGNITIV O'QIB TUSHUNISH STRATEGIYALARI</i>	597
<i>Xonzodabegim Abdiyeva Turdiboy qizi. ONA TILINI O'QITISHDA FOTO MATERIALLARDAN FOYDALANISH</i>	603
<i>Abduqaxxorova Durdona Farxod qizi. SO'ZNING SEMANTIK TARKIBIDA ASOS VA AFFIKSLARNI O'QITISH USULLARI</i>	605
<i>Ahmadjonova Umida Ikromjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLAR TAHLILI</i>	614
<i>Askarova Mashxura Akmal qizi. NOFILOLOGIK YO'NALISHLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA O'ZBEK TILINI O'QITISH</i>	620
<i>Atamurodova Gulnora Shermurodovna. TALAFFUZI QIYIN BO'LGAN AYRIM NUTQ TOVUSHLARI USTIDA ISHLASH METODIKASI</i>	626
<i>Baxtiyorova Xusnora Muzaffar qizi. IJOD MAKTABLARIDA YOZMA NUTQ KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHGA OID AMALIY TOPSHIRIQLAR TAVSIFI</i>	630
<i>Avezova Dilnura Bayramovna. ESSE YOZISHDA YO'L QO'YILADIGAN XATOLAR VA ULAR USTIDA ISHLASH USULLARI</i>	635
<i>Axmadjanova Malika Maxmudjon qizi. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA LUG'AT BOYLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI</i>	638
<i>Davronova Zebiniso Bahtiyor qizi. SEZGI A'ZOLARI ASOSIDA TASVIRIY MATN YARATISH JARAYONI TAHLILI</i>	646
<i>Ergasheva Lobarxon O'tkir qizi. TIL O'QITISH VA O'RGANISHDA AUTENTIK MATN VA UNDAN FOYDALANISHDAGI AFZALLIK VA KAMCHILIKLAR</i>	651
<i>Hamroyev Umid Mustafoyevich. O'QUVCHILARDA KOGNITIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH</i>	656
<i>Iskandarova Noila Muxtor qizi. PUBLITSISTIK USLUBNI O'RGANISH ORQALI O'QUVCHILARNING TANQIDIY VA IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH</i>	661
<i>Israilova Z. XORIJLIK TALABALARINING O'ZBEK TILIDA SO'Z O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI</i>	664
<i>Komilova Lola Nosillojevna. ONA TILI TA'LIMIDA DARAJALI TESTLAR</i>	670
<i>Axmadiyeva Ozoda Iskandar qizi. 10-SINF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI</i>	677
<i>Madina Axmadjanova Mahmudjon qizi. MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARINI GRAMMATIK MINIMUM ASOSIDA O'QITISH TAMOIYILLARI</i>	682
<i>Komilov Xusanboy Bahodir o'g'li. ONA TILINI O'QITISHDA INTERFAOL DASTURLAR VA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH</i>	689
<i>Madvaliyev Orifjon Tolibovich. TAHRIR TA'LIMINI TASHKIL ETISH: DASTLABKI QADAMLAR</i>	693

